


Ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-adabiy jurnal

IF(Impact Factor)9.573 / 2024

ISSN 2181-1881



MOTURIDIYLIK



The Maturidiyva - الماتريدية - Матуридизм



SLIB.UZ
Scientific library of Uzbekistan

3/2024

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ

Музаффар КОМИЛОВ – тарих фанлари номзоди, доцент

Шайх Нуриддин ХОЛИҚНАЗАР – Ўзбекистон мусулмонлари идораси раиси, муфтий

Баҳром АБДУҲАЛИМОВ – Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси вице-президенти

Уйғун ҒАФУРОВ – тарих фанлари бўйича фалсафа доктори

Фирдавс АБДУХОЛИҚОВ – Ўзбекистондаги Ислом цивилизацияси маркази директори

Давронбек МАХСУДОВ – тарих фанлари доктори, профессор

Зоҳиджон ИСЛОМОВ – филология фанлари доктори, профессор

Аҳаджон ҲАСАНОВ – тарих фанлари доктори, профессор

Шовосил ЗИЁДОВ – тарих фанлари доктори, профессор

Жамолиддин КАРИМОВ – тарих фанлари бўйича фалсафа доктори

Аҳмад Саъд ДАМАНҲУРИЙ (أحمد سعد الدمنهوري) – илоҳиёт фанлари доктори

Маҳмуд Эрол ҚИЛИЧ (Mahmud Erol KILIÇ) – доктор, профессор, IRCICA Бош директори

Назир Муҳаммад АЙЁД (نظير محمد عياد) – илоҳиёт фанлари доктори, Миср муфтийси

Режеп ТУЗЖУ (Reser Tuzcu) – илоҳиёт фанлари доктори, профессор

Аширбек МУМИНОВ – тарих фанлари доктори, профессор, IRCICA Бош директорининг дастурлар бўйича маслаҳатчиси

Камалуддин Нурдин МАРЖУНИ (Kamaluddin Nurdin Marjuni) – илоҳиёт фанлари доктори, Малайзия ислом фанлари университети кафедра мудири

Ўзбекистон Республикаси Дин ишлари бўйича қўмитасининг 2024 йил 23 сентябрдаги 03-07/5757-сонли хулосаси асосида тайёрланди.



Муассис:

**ЎЗБЕКИСТОН ХАЛҚАРО ИСЛОМ
АКАДЕМИЯСИ ХУЗУРИДАГИ
ИМОМ МОТУРИДИЙ ХАЛҚАРО
ИЛМИЙ-ТАДҚИҚОТ МАРКАЗИ**

Бош муҳаррир:

Жамолиддин Каримов,
Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори

Муҳаррир ўринбосари:

Зафар Фахриддинов,
*Исломишунослик фанлари бўйича
фалсафа доктори*

Саҳифаловчи:

Зарифжон Арслонов

Дизайнер:

Зарифжон Ғуломов

«Мотуридийлик» журнали
Ўзбекистон Республикаси Олий аттестация
комиссиясининг 2021 йил 30 декабрдаги
310/10-сон қарори билан диссертация асосий илмий
натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий
нашрлар рўйхатига киритилган.

Журнал 2021 йил 12 декабрда Ўзбекистон
Республикаси Президенти Администрацияси
хузуридаги Ахборот ва оммавий
коммуникациялар агентлиги томонидан
№1139 рақами билан рўйхатга олинган.

Таҳририят манзили:

Тошкент шаҳар, Шайхонтохур тумани,
Абдулла Қодирий кўчаси, 11-уй.

E-mail: maturidijournal.org

Web-sahifa: info@moturidiy.uz

Телефонлар: (+99871) 244-35-21,
(+99871) 244-35-47

МУНДАРИЖА

ИСЛОМШУНОСЛИК

Qosimjon Sodiqov

Qur'oni karimning eski turkiy tildagi o'girmasi 4

Shukrullo Jorayev

Ханафий мазхабида тинчликнинг кадрланиши ҳамда уруш ва низоли вазиятларда инсонпарварлик тамойиллари 17

Ikhtiyor Abdurahmonov

XI-XII asrlarda Movarounnaxrda ханафий-мотуридий тафсир мактаби ривожи 25

Abdullo Ghulomov

Махмуд Ломишийнинг «Тамҳид» асарида имон ва унга боғлиқ масалалар баёни 32

Zohidjon Abdullayev

«Сунани Термизий» асарида келган ақидага оид ҳадислар таҳлили..... 42

Abdulaziz Yakhshilikov

«Ta'vilot al-qur'on» asarida oyatlar sababi nuzulining rivoyat qilish uslublari 47

Doniyor Muratov, Robiyaxon Hamroqulova

Қуръон қиссалари ва уларнинг ўзига хос хусусиятлари..... 54

ДИНШУНОСЛИК

Jamshid Aliev

Сурия мижаросида диний омилнинг ўзига хос хусусиятлари 62

Ulugbek Jurayev

Германияда экстремизмга қарши курашиш тажрибаси таҳлили 70

ИСЛОМ ТАРИХИ ВА МАНБАШУНОСЛИК

Irodakhon Gafurova

Scientific research dedicated to the confessions of Turkestan..... 77

Zafar Fakhriddinov

Ҳаким Термизийнинг ислом манбалари шарҳига оид асарлари таснифи 83

Javohir Azimqulov

Arab istilosi davrida Turonda hunarmandchilik (VII asr o'rtalari- IX asr boshlari)..... 91

Abduvali Pardayev

Нусайр ибн Яҳё Балхий ҳаёти ва илмий фаолияти 97

Javohir Z. AZIMQULOV,
*Junior Research Fellow of the
Institute of History of the Academy of
Sciences of the Republic of Uzbekistan.
Yahyo Gulyamov Street 70, 100047,
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: azimkulob@gmail.com*

DOI: 10.47980/MOTURIDIY/2024-3/12

VII ASR O'RTALARI – IX ASR BOSHLARI TURONDA HUNARMANDCHILIK

CRAFTS IN TURAN DURING THE PERIOD MID-VII - BEGINNING OF THE IX CENTURIES

РЕМЕСЛО В ТУРАНЕ В СЕРЕДИНЕ VII - НАЧАЛЕ IX ВЕКОВ

KIRISH

VII asr o'rtalaridan boshlab Movarounnahr hududiga arab qo'shinlari tomonidan yurishlar boshlandi. Ilk davrlarida bu yurishlar mintaqa aholisini o'rganish, ularning harbiy salohiyatidan xabardor bo'lish va shu bilan birga bu hududning boyliklarini qo'lga kiritish maqsadida amalga oshirildi. 651-yilda arablar o'sha paytning boy va madaniy jihatdan rivojlangan shaharlaridan bo'lgan Marvga yaqinlashib, uni deyarli jangsiz egallab oldilar. Basra voliysi Abdulloh ibn Omir (625-677/678) boshchiligidagi qo'shin 652-yilda Hirot va Bodg'isni jang qilmasdan egallaydi (at-Tabariy, 2005.).

VII asrning o'rtalarida Turk xoqonligi nazorati ostida bo'lib, hoqonlik tomonidan tayinlangan turli xil mahalliy sulolalar tomonidan boshqarilib kelinardi.

Turk xoqonligining boshqaruvida 2 xil tizim mavjud edi: 1) bo'ysundirilgan ba'zi o'lka va viloyatlarda mavjud mahalliy sulolalar saqlanib qolgan va ular xoqonlikka o'lpon to'lab turgan; 2) tobe o'lka va viloyatlarning ayrimlari boshqaruviga tayinlangan hukmdor xonadonga mansub vakillar hokimiyati. O'sha kezlarda Sirdaryo – Amudaryo oralig'i hamda tutash hududlar G'arbiy Turk xoqonligi qaramog'ida bo'lib, Chochda Teginlar va Tudunlar, Farg'onada ixshidlar, Ustrushonada afshinlar, Sug'dda ixshidlar, Buxoroda buxorudotlar, Xorazmda afrig'iylar, Toxaristonda yabg'ular hokimiyati mavjud edi. Ularning ba'zilarining kelib

chiqishi Turk xoqonligining boshqaruvchi sulolasi – Ashina xonadonga mansub bo'lishgan. Jumladan, Choch Teginlari (605-750), Toxariston yabg'ulari (620-750), Farg'ona Ashina sulolasi (640-810) (G'. Boboyorov, 2021:35).

Bu o'lkaning islom dini kirib kelishidan oldingi ijtimoiy holati haqida Yoqut Hamaviy shunday yozadi: «Movarounnahrdan murod Xurosondagi Jayhun daryosining narigi tomonidir. Jayhunning sharqiy tarafi «Haytallar yurti» deb ham ataladi. Islom kirib kelgach, bu hududlar «Movarounnahr» deb atala boshladi. Jayhunning g'arbiy tomoni esa, Xuroson va Xorazm viloyatiga tegishli bo'lgan. Xorazm Xuroson hududiga kirmaydi, balki u alohida iqlim – yurt hisoblanadi. Movarounnahr iqlimlar ichida havosi eng musaffosi, eng hosildori va boshqa yaxshi jihatlari nisbatan ko'prog'i sanaladi. U yerlik aholi yaxshilik va saxovatga o'ch va yordamparvar bo'lib, yomonlikdan yiroq va bag'rikeng insonlardir. Shu bilan birga, movarounnahrliklar tengsiz kuch-qudrat, yengib bo'lmas qat'iyatlik va jasurlik sohibi bo'lganlar. Shuningdek, ularda harbiy tayyorgarlik va qurol-aslaha yaxshi rivojlangan (Ёкут ал-Хамавий, 1984:470). Bu ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, Movarounnahr o'lkasi juda qulay geografik muhitga ega bo'lib, undagi hosil va boyliklar arab musulmonlarning e'tiborini, shubhasiz, o'ziga jalb qilgan.

Arablarning boshqa xalqlar ustidan erishgan g'alabalari nafaqat ularning harbiy qudratiga, balki o'zlari bo'ysundirgan xalqlarning siyosiy tarqoqligiga, iqtisodiy-ijtimoiy jihatdan tarqoqligiga bog'liq bo'lgan. Xurosonni egallagan arab qo'shinlari VII asr ikkinchi yarmidan Amudaryoning narigi tomonini egallashga urindilar, ular bu hududni o'z tillarida Movarounnahr – ya'ni «daryoning u tomoni» deb nomladilar.

Arablarning yurishlari davomida Turonda G'arbiy Turk xoqonligiga bo'ysungan bir necha kichik davlatlar: Sug'd ixshidligi, Buxorudotlar mulki, To'xariston yabg'uligi, Farg'ona ixshidligi, Choch teginligi va tudunligi, Ustrushona afshinligi, shuningdek Xorazmda Afrig'iylar sulolasi boshqaruvidagi yerlardan iborat edi. Yuqoridagi davlatlar vassal hisoblansalar-da, ular ichki va tashqi siyosatlarini deyarli mustaqil tarzda yuritganlar. Bu holat istiloga qarshi birlashish uchun to'sqinlik qilardi. Vaziyatni yaxshi o'rganish uchun arab qo'shinlari 644-yilda Toxariston chegaralariga yetib keldi. Bunga qadar 642-yilda arablar sosoniylar sulolasiga Nahovand yaqinidagi jangda zarba berib,

Annotatsiya. Maqolada Umaviylar davlati tomonidan Movarounnahr hududi fath etilgan davrdan to Somoniylar sulolasi hokimiyatga kelganiga qadar bo'lgan davrda bu hududda hunarmandchilik sohasining rivoji va ularning iqtisodiy-ijtimoiy hayotga ta'siri keng tahlil etilgan. Movarounnahr hududining arablar tomonidan zabt etilishi va keyinchalik ular tomonidan amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar, mahalliy hunarmandchilikning yangi bosqichga ko'tarilishiga sabab bo'ldi. Arablar; Eron Sosoniylarini mag'lub etgandan so'ng, VII asrning o'rtalaridan to IX asr boshlariga qadar Turon hududida o'z ta'sirini kuchaytirish harakatlarini davom ettirishdi.

Maqolada, bu davrda Movarounnahr hududida mavjud bo'lgan hunarmandchilik sohasining qanday rivojlanganligi, ba'zi hunar turlarining asta-sekin yo'qolib borishi, yangi hunarmandchilik sohasining paydo bo'lishi haqida ma'lumot berilgan. Shu bilan birga, arablar istilosi bilan bog'liq iqtisodiy-ijtimoiy o'zgarishlar, jumladan, yangi hunarmandchilik turlarining paydo bo'lishi va mahalliy iqtisodiyotga bo'lgan ta'siri batafsil ko'rib chiqilgan. Bu davr Movarounnahr iqtisodiy hayotining rivojida, xususan, hunarmandchilikning shakllanishida o'ziga xos burilish davri bo'ldi.

Maqolada mazkur davr tarixining O'zbek davlatchilik tarixidagi ahamiyati, arab istilosidan keyingi iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlardagi o'zgarishlar, va bu davrda hunarmandchilikning yangi bosqichga chiqishi, mavjud hunar turlarining takomillashishi yoki yo'qolishi kabi masalalar tahlil qilingan. Tadqiqotda birlamchi manbalar va ilmiy adabiyotlardan foydalanilgan holda bu jarayonlarning muhim jihatlari haqida xulosalar taqdim etilgan. Mazkur davrni o'rganish orqali bugungi hunarmandchilik an'analari, iqtisodiy munosabatlar va madaniy merosning kelib chiqishiga doir muhim ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin.

Kalit so'zlar: Turon, Movarounnahr, abbosiylar, umaviylar, Buxoro, Samarqand, Xo'jand, Saf'ul-varroqin, Talas jangi, Bayt at-tiroz, Marv.

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the development of various crafts and their impact on the socio-economic life of the Mawarannahr region, from its conquest by the Umayyad Caliphate to the rise of the Samanid dynasty. The Arab conquest of Mawarannahr and the subsequent economic reforms introduced led to a new phase in the development of local craftsmanship. Following their defeat of the Sassanids of Iran, the Arabs continued to expand their influence in the Turan region from the mid-7th century to the early 9th century.

The article discusses the development of different crafts in Mawarannahr during this period, including the gradual disappearance of certain crafts and the emergence of new ones. It also examines the economic and social changes resulting from the Arab conquest, focusing on the introduction of new crafts and their impact on the local economy. This period marked a significant turning point in the economic life of Mawarannahr, especially in the formation and evolution of its craftsmanship.

The article further analyzes the significance of this period in the history of Uzbek statehood, the transformations in economic and social relations following the Arab conquest, and the emergence of a new phase in craftsmanship, including the improvement or decline of existing crafts. Primary sources and scholarly literature are utilized to highlight the essential aspects of these processes. Studying this period provides valuable insights into the origins of today's craft traditions, economic relations, and cultural heritage.

Keywords: Turan, Mawarannahr, Arab Caliphate, Abbasids, Umayyads, Bukhara, Samarkand, Khujand, Saf'ul-varraqin, Talas battle, Bayt at-tiraz, Merv.

Аннотация. В данной статье анализируется развитие ремесленных отраслей в регионе Мавераннахра в период с завоевания этой территории Омейядами до прихода к власти династии Саманидов, а также влияние этих изменений на экономическую и социальную жизнь региона. Завоевание Мавераннахра арабами и экономические реформы, проведенные в этом периоде, способствовали подъему местного ремесленного производства на новый уровень. После победы над Сасанидским Ираном арабы продолжали усиливать своё влияние в Туране с середины VII века до начала IX века.

В статье рассматривается, как развивались ремесленные отрасли на территории Мавераннахра в этот период, какие ремесла постепенно исчезали, а какие новые формы ремесленной деятельности появлялись. Также подробно рассматриваются экономико-социальные изменения, связанные с арабским завоеванием, включая возникновение новых видов ремесел и их влияние на местную экономику. Этот период стал важным этапом в развитии экономической жизни Мавераннахра, особенно в формировании ремесел.

Кроме того, в статье анализируется значение этого периода в контексте истории узбекской государственности, изменения экономико-социальных отношений после арабского завоевания, а также развитие ремесел, улучшение существующих видов и исчезновение некоторых из них. Исследование опирается на первоисточники и научную литературу, на основе которых сделаны выводы о ключевых аспектах этих процессов. Изучение этого периода позволяет получить важные сведения о происхождении современных ремесленных традиций, экономических отношениях и культурном наследии региона.

Ключевые слова: Туран, Мавераннахр, Арабский халифат, Аббасиды, Омейяды, Бухара, Самарканд, Худжанд, Саф'уль-варрокин, Таласская битва, Байт ат-тираз, Мерв.

ularni G'arbiy Eron hududidan siqib chiqardi. Sosoniylar sharqiy viloyatlarda arablarga qarshilik ko'rsatdilar.

Arab xalifaligi yurishlari arafasida G'arbiy turk xoqonligi qo'shinlari Xitoy qo'shini bilan 645 va 658-yillarda jang qilganlar va o'zlarining avvalgi ta'sirlarini yo'qotganlar. Sug'd vaqtinchalik Xitoy ta'siriga tushgan va bu ta'sir Keshga qadar cho'zilgan. Xitoy imperatori Sug'd va unga tutash viloyatlarni o'z imperiyasi tarkibiga kiritishni istasa-da, amalda Xitoyning ta'siri faqat nomigagina edi.

ASOSIY QISM

Tarixiy manbalarda hozirgi O'zbekiston hududlari VII asrdan boshlab Movarounnahr nomi bilan tilga olinadi (at-Tabariy, 2005: 2260). Bu atamaning kelib chiqishi bevosita islom dinining bu o'lkaga kirib kelishi bilan bog'liq. Movarounnahr atamasi «Daryoning narigi tomoni» ma'nosini anglatadi. Daryodan murod o'sha davrdagi Jayhun, ya'ni hozirgi Amudaryo nazarda tutiladi .

Arab xalifaligi qo'shinlarining Movarounnahr-dagi turkiy xalqlar bilan birinchi marta to'qnash kelishi, manbalarning guvohlik berishicha, 651 yilda lashkarboshi Ahnaf ibn Qays Sosoniy hukmdori III Yazdigardni (632-651) Marvgacha ta'qib qilib keldi ilosiz qolgan Yazdigard III mahalliy hukmdorlardan yordam so'rab noma yozdi. Xususan, Turondagi mahalliy kuchlar Xuroson tomonga yurib, Balxni ozod qilishdi. III Yazdigard yana Marvga qaytdi. Ammo uning amaldorlari turklarni «azaliy raqib» bilib, arab lashkarboshisi Ahnaf bilan muzokaraga kirishdi (История ат-Табари, 1987:18-21). Bu holat ittifoqchi kuchlarni Balxni tashlab chiqishga majbur etdi. Yazdigard III hijriy 31/651-yilda Razik qishlog'ida o'ldirilgach, Umaviylar vakili Abdulloh ibn Omir va Marv ahli o'rtasida sulh imzolaniib, Marv egallandi(История ат-Табари, 1987:10).

Basra voliyasi Abdulloh ibn Omir (625-677/678) boshchiligidagi qo'shin 652 yilda Hirot va Bodg'isni jang qilmasdan egallaydi (at-Tabariy, 2005:695).

Biroq, arablar qanchalik ko'p hududlarni egallashga intilmasinlar, ularning ichida mavjud bo'lgan qabilaviy qarama-qarshilik va nizolar ularga kerakli vaziyatlarda kuchlarni birlashtirishga to'sqinlik qilar edi. Natijada, bir hududni to'liq egallash uchun qayta-qayta yurishlar qilishga majbur bo'linar edi.

Movarounnahr shaharlarida VII-IX asrlar davomida hunarmandchilikning bir necha turlari mavjud bo'lgan va aholining asosiy faoliyat sohalaridan biri bu hunarmandchilik bo'lgani manbalarda qayd etilgan. Dehqonchilik sohasi hunarmandchilikni xom ashyo bilan ta'minlashda asosiy o'rinda turgan bo'lsa, tog' kon va qazilmalar ham xom ashyo sifatida xizmat qilgan.

Mintaqaning deyarli har bir shahri o'zining maxsus ishlab chiqargan mahsuloti bilan mashhur bo'lgan. Xurosonning asosiy shaharlaridan bo'lgan Marvda oq rangdagi marv liboslari, to'nlar, noto'qima, shoyi va kanop matolar ishlab chiqarilgan, Samarqandda esa kumushrang(simgun) matolar, qizil gazlamalar, ipak va shoyi matolar, Buxoroda esa yumshoq matolar, joynamozlar, gilamlar, mehmonxonalarga to'shaladigan to'shamalar va qog'ozga o'xshash bo'z mato bo'lmish karbos (Maqdisiy, 1987: 324) ishlab chiqarilgan. Vizorda vizoriy matolar, Farg'onada oq matolar, Shoshda o'tovlar, to'nlar, joynamozlar ishlab chiqarilgan (Maqdisiy, 1987:325).

Movarounnahr shaharlari orasida Samarqand bu davrda hunarmandchilik sohalarining eng rivoj topgan hududi bo'lgan. VII asrda Samarqandda yasalgan zirhlar juda mashhur bo'lgan, o'lkaga tashrif buyurgan chin elchilari hatto bu zirhlardan Xitoyga olib ketganlari haqida yozib qoldirishgan (Умняков. 1972:16).

Samarqandning eng nodir hunari albatta bu qog'oz ishlab chiqarish sanoati bo'lgan. Samarqand qog'oz Sharqning eng mashhur qog'oz bo'lib, ilk davrlarda ipakdan tayyorlangan, lekin keyinchalik ipak mahsuloti qimmat bo'lgani uchun ham o'lkada ko'p yetishtiriladigan paxtadan qog'oz tayyorlash boshlangan (Osman Aydinli, 2011:327). Qog'oz ishlab chiqarish VIII-IX asrlarda san'at darajasiga ko'tarildi, Samarqandga «Saff al-varroqiyn» – «Qog'ozchilar bozori» nomli bozor bo'lib, unda faqat Samarqand qog'oz sotilardi. Bu davrda sifat jihatdan faqatgina Xitoyda ishlab chiqarilgan qog'ozgina Samarqand qog'oz bilan raqobatlasha olardi.

Qog'oz ishlab chiqarilishning boshlanishi manbalarda 750-yilda Xitoy bilan bo'lib o'tgan Talas jangi bilan bog'lanadi. Aynan shu jangda mag'lubiyatga uchragan Xitoylik(uyg'ur) asirlar Samarqandliklarga ipakdan qog'oz olish sirsinoatlarini o'rgatganligi aytiladi. Lekin, aynan Samarqandda qog'oz ishlab chiqarilishining boshlanishi o'sha davrda umumiy nom bilan Chin

deb atalgan va Chin qo'shinlari tarkibida kurashgan uyg'urular bilan bog'liqdir (Bahaeddin Ögel, 1984:).

VIII asr o'rtalarida Samarqandda boshlangan qog'oz ishlab chiqarish IX-X asrlar davomida butun Islom olamiga yoyildi, lekin shunday bo'lsada Misr va Bag'doddagi olimlar va davlat amaldorlari uchun har yili Samarqanddan ma'lum miqdorda qog'oz olib borilardi (Yoqut Hamaviy, 1984:176). Avvalo, islom olamiga yoyilgan qog'oz ishlab chiqarish texnikasi shu yo'l orqali Yevropaga ham kirib bordi.

Qog'oz ishlab chiqarish mahsuloti ipakdan paxtaga almashitirilgandan so'ng aholining ko'pchilik qismi bu hunar bilan shug'ullana boshlagan, hatto IX-X asrlarda ijod qilgan samarqandlik bir qator olimlarning «Varroqiy» nisbasi bo'lgani bu ish bilan olimlar ham shug'ullanganligini ko'rsatadi (Osman Aydinli, 2011:341). Paxta xom ashyosidan tashqari Samarqandda latta matolardan ham qog'oz ishlab chiqarilgan.

Arablar o'lkani egallagan davrda ham Samarqand o'zining qimmatbaho matolari jumladan ipak matolari bilan mashhur bo'lgan. Qutayba ibn Muslim va G'urak orasida tuzilgan sulh shartnomasida aholining qimmatbaho matolar va ipak matolardan ma'lum miqdorda boj to'lashi (Kufiy, 1991: 182) haqidagi ma'lumot ham buni yana bir bor tasdiqlaydi.

Buxoroda bu davrda «bayt at-tiroz», deb nomlangan davlat tikuv ustaxonasida ishlab chiqarilgan gilamlar, darpardalar, yozdij kiyimlar, jigarrang joynamozlar va xalifa uchun maxsus to'qiladigan ust kiyimlar juda shuhrat qozongan. U qo'rg'on va shahriston o'rtasida, jome masjidiga yaqin yerda joylashgan. Bu yerga yiliga bir marta Bag'doddan jo'natilgan maxsus vakil kelib Buxoro xiroji evaziga shu mahsulotlarni olib ketgani kelgan. Ustaxona XII asrda o'z faoliyatini to'xtatgan. Buxoro shahrida bu korxonada to'qilgan kiyim va mahsulotlarni Shom, Misr va Rum shaharlarigacha olib borib sotadigan maxsus savdogarlar faoliyat yuritgan (Narshaxiy, 2022:42).

Ayrim mahallalar aholisi va savdo rastalari muayyan hunar turiga ixtisoslashganlar, ular bir turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarganlar va uning savdosi bilan shug'ullanganlar. Ushbu davr hunarmandlari asosan ozod kishilardan iborat bo'lganlar. Istaxriyning ma'lumot berishicha, Buxoro yaqinidagi Iskijkat nomli joyning aholisi asosan bozorga to'qimachilik mahsulotlarini yetkazib berish bilan shug'ullangan (Narshaxiy, 2022:89).

Kulolchilik va sopol mahsulotlarini ishlab chiqarish shahar va qishloqlarida ahamiyati jihatidan ikkinchi o'rinda tutgan. Kulolchilik mahsulotlarining eng yirik ishlab chiqaruvchisi bu Samarqand bo'lgan. Shuningdek, Shosh idishlari ham ancha obro' qozongan (Maqdisiy, 1987:326). Samarqand atrofidagi (Istaxriy, 2019:134) Ko'hak tog'idan Buxorodagi Varqa tog'idan idishlarni yasash uchun tuproq olib kelingan. Kulolchilik va sopol mahsulotlarining aholi orasida yanada keng tarqalishiga Islom dinida oltin va kumushdan yasalgan idishlardan foydalanishga qo'yilgan ta'qiq ham turtki bo'lgan.

MUHOKAMA

Islomdan avvalgi davrlarda yasalgan idishlarning ko'plari diniy va maishiy ehtiyojlarni qondirish uchun mo'ljallangan. Ularning bezaklari va shakllari mahalliy an'analar va e'tiqodlarga asoslangan. Masalan, islomdan oldingi idishlar tutqichlarida qutbaraka ramzi deb hisoblangan muqaddas qo'y, buqa va boshqa hayvonlar shakli ishlangan.

Islomdan keyingi davrda, ayniqsa IX–XII asrlarda, kulolchilik yanada rivoj topdi va yangi estetik mezonlar shakllandi.

Islomiy an'analarga ko'ra, tasvirlarda jonli mavjudotlarning ko'rinishi cheklangani sababli, o'sha davrdagi kulolchilik buyumlari o'simlik naqshlari, geometrik va kalligrafik bezaklar bilan boyitildi.

Islomgacha bo'lgan davrda hayvonlar va inson tasvirlari ko'proq uchraydi, islomiy davrda esa o'simlik naqshlari, geometrik va kalligrafik bezaklar ustun keladi. Lekin bu degani musulmonchilik davri kulolchilik idishlariga jonli narsalar chizish butunlay to'xtadi, degani emas. Somoniylar davri idishlarida tovus, hud-hud, kiyik, ot kabi hayvonlar tasviri tez tez uchrab turadi. Islom dini bilan bir qatorda ilmiy bilimlar va madaniy aloqalar kengayib, bu o'z navbatida idishlar shakli va ulardan foydalanish madaniyatiga ta'sir qildi. Masalan, oshxona an'analarning o'zgarishi yangi turdagi idishlarning yaratilishini talab qilgan.

Islomiy madaniyatning ilmiy yutuqlari tufayli kulolchilikda ham yangi texnikalar va materiallar qo'llanila boshlandi. Bu davrda minai (rang-barang ishlov berish usuli), fayans va boshqa yangi materiallar bilan tajribalar olib borildi.

Zargarlik sohasida bu davrda Maymurg' o'lkasi ajralib turgan, 713 va 741-yillarda Maymurg' tuduni tomonidan Chinga yuborilgan sovg'a-salomlar orasida mohir did bilan yasalgan bilakuzuklar va qimmatbaho zargarlik buyumlari bo'lgani bu hududda zaragarlik sohasi yaxshigina rivojlanganidan darak beradi (Chavannes, 2007:253).

Shuningdek, jangu jadallar o'rta asrlarda ko'p bo'lgani sababli qurol ishlab chiqarishga alohida e'tibor berilgan. Aholining yuqori tabaqasi uchun qurol yarog' qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan va u boylik, sovg'a, hamda obro' uchun ishlab chiqarilgan.

Arablar mahalliy aholining kamondan otish qobiliyatlarini juda tez fahmlaganlar va Xuroson noibi Ubaydulloh ibn Ziyod (673 – 674-yillar) Amudaryoni kechib o'tgan va Romitan va Poykantning yarmini egallab, buxorolik kamonchilarni asir olgan va ularni Basraga jo'natgan. Ular ikki mingga yaqin bo'lib, yog'ochdan yasalgan o'qlarni otuvchi ajoyib mergan (nushshob) bo'lganlar. IX asrlarda o'qlarning uchini asosan suyakdan yasalgan (Ya'qubiy, 1992:295).

NATIJA

VIII asr boshiga kelib Xuroson voliysi sifatida tayinlangan Qutayba ibn Muslim Movarounnahr hududini deyarli to'liq bo'ysundirdi.

Bu davrga kelib umaviylar (661-750) sulolasi, vakili Valid ibn Abdulmalik hokimiyatda bo'lib, arablar egallab olingan hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy hayotga ta'sir o'tkazishdi.

Mintaqaga islom dini kirib kelishidan oldin ham Samarqand, Buxoro, Kesh, Shoh, Farg'ona, Marv va Balx kabi shaharlarida hunarmandchilikning kulolchilik, shishasozlik, zargarlik, ip-gazlama ishlab chiqarish kabi bir qator turlari taraqqiy etgan.

Abbosiylar davrida esa hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqarish yanada kengaya boshladi. Bu davrga kelib ip-gazlama to'qish va qog'oz ishlab chiqarish Turon hududida eng asosiy hunar turlari edi.

XULOSA

Yuqoridagi ma'lumotlardan shuni aytish mumkinki, Movarounnahr arablar tomonidan egallab olinishidan avval ham hunarmandchilik markazlari sifatida shuhrat qozongan va bu faoliyat arab istilosi davrida ham to'xtab qolmagan.

Arablar nazorati ostida ham Movarounnahrda qog'oz ishlab chiqarish, ip-gazlama to'quvchiligi, kulolchilik, sopolchilik, zargarlik, qurolsozlik kabi sohalar taraqqiy etdi, bunga asosiy sabab mintaqa aholisining qadimdan bu hunar sohalaridan xabardorligi va bu sohalarida yetarlicha bilim va mahoratlariga egaligi bo'lsa, ikkinchi tomondan davlatning ulkan hududidagi o'zaro madaniyatlar almashinuvi ham turtki bo'ldi.


MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YIXATI

1. Muhammad ibn Jarir at-Tabariy. (2005) Tarix ar-rusul wal-muluk. Ar-Riyod: Bayt al-afkar ad-davliya.
2. Ал-Балазурий. (1987). Футух ал-булдон. Байрут: Муассаса ал-маориф.
3. Ал-Масъудий. (2005). Муруж аз-захаб. Байрут: Ал-мактаба ал-асрийя.
4. Ёкут ал-Ҳамавий. (1984). Муъжам ал-Булдон. Ж.3. Байрут: Дар Байрут.
5. Мақдисий. (1987). Ahsan at-taqosim fi ma'rifat al-aqolim. Bayrut: Dar Bayrut.
6. Ibn A'sam al-Kufiy. (1991). Futuh. IV jild. Bayrut: Dar al-advo.
7. Yoqut Hamaviy. (1987). Mujam al-udabo. Bayrut: Dar al-Bayrut.
8. Abu Bakr Muhammad Narshaxiy. (2022). Buxoro tarixi. Toshkent: Anorbooks.
9. Istaxriy. (2019). Al-masalik val-mamalik. (Movarounnahr va Xuroson qismi). Toshkent: Fan.
10. G'.Boboyorov. (2021). G'arbiy Turk xoqonligi tarixi va tanga-pul tizimi. Toshkent: Tafakkur avlodi.
11. История ат-Табари. (1987). Пер. с араб. В.И. Беляева с допол. О.Г. Большакова, А.Б. Халидова. Ташкент: Фан.
12. Умняков. (1972). Самарканд. Масква.
13. Osman Aydinli. (2011). Semerkent tarihi. Istanbul yayinlari.
14. Bahaeddin Ögel. (1984). Islamiyyetden Önce Türk Kültür Tarihi. Ankara:Ankara yayinlari.
15. Chavannes. (2007). Cin kaynaklarine gore Bati Turkleri. Istanbul: Kitap evi.
16. Lynch, R. J. (2020). Arab Conquests and Early Islamic Historiography TheFutuh al-Buldan of al-Baladhuri. London: Bloomsbury publishing.

REFERENCES

- al-Tabari, Muhammad ibn Jarir. (2005). Tarikh ar-Rusul wal-Muluk. Riyadh: Bayt al-Afkar al-Dawliya
- al-Baladhuri. (1987). Futuh al-Buldan. Beirut: Muassasat al-Maarif.
- al-Masudi. (2005). Muruj al-Zahab. Beirut: al-Maktaba al-Asriyya.

20. al-Hamawi, Yakut. (1984). Mu'jam al-Buldan, Vol. 3. Beirut: Dar Beirut.
21. al-Maqdisi. (1987). Ahsan al-Taqasim fi Ma'rifat al-Aqalim. Beirut: Dar Beirut.
22. Ibn Asam al-Kufi. (1991). Futuh, Vol. 4. Beirut: Dar al-Adwa.
23. al-Hamawi, Ruby. (1987). Mujam al-Udaba. Beirut: Dar al-Bayrut.
24. Abu Bakr Muhammad Narshahi. (2022). Buxoro tarixi. Tashkent: Anorbooks.
25. al-Istakhri. (2019). Al-Masalik Wal-Mamalik (Mawarannahr and Khorasan part). Tashkent: Fan.
26. Boboyorov, G. (2021). G'arbiy Turk Xoqonligi Tarixi va Tanga-Pul Tizimi. Tashkent: Fikr Avlodi.
27. History of at-Tabari. (1987). Translated from Arabic by V. I. Belyaeva, with additions by O. G. Bolshakova and A. B. Khalidova. Tashkent: Fan.
28. Umnyakov. (1972). Samarkand. Moscow.
29. Osman Aydinli. (2011). History of Semerkent. Istanbul: Istanbul Yayınları.
30. Bahaeddin Ögel. (1984). Islamiyyetten Önce Türk Kültür Tarihi.. Ankara: Ankara Yayınları.
31. Chavannes. (2007). Western Turks According to Chinese Sources. Istanbul: Kitap Evi.
32. Lynch, R. J. (2020). Arab Conquests and Early Islamic Historiography: The Futuh al-Buldan of al-Baladhuri. London: Bloomsbury Publishing.



ЎЗБЕКИСТОН ХАЛҚАРО ИСЛОМ АКАДЕМИЯСИ
ИМОМ МОТУРИДИЙ ХАЛҚАРО ИЛМИЙ-ТАДҚИҚОТ МАРКАЗИНИНГ
«МОТУРИДИЙЛИК» ЖУРНАЛИ

Мазкур нашр олий ўқув юртлари ва илмий-тадқиқот муассасаларининг
профессор-ўқитувчилари, докторантлари, мустақил тадқиқотчилари, магистрантлари,
талабалари ва кенг китобхонлар оммасига мўлжалланган.

Таҳририят фикри муаллиф нуқтаи назари билан бир хил бўлмаслиги мумкин.
Журналдан кўчирма олинганда манба қайд этилиши шарт.

МОТУРИДИЙЛИК



The Maturidiyya - الماتريدية - Матуридизм

3/2024

Бош муҳаррир: **Ж.Каримов**

Муҳаррир: **З.Фахриддинов**

Нашр учун масъул: **З.Арслонов**

Чет тилларидаги матнлар муҳаррири: **О.Сотволдиев**

Дизайнер-саҳифаловчи: **З.Ғуломов**

Нашриётнинг лицензия рақами АИ № 0011. 06.05.2019 йил.

Босишга 16.10.2024 йил рухсат этилди. Бичими 60×84 1/8.

Ризограф усулда босилди. Шартли босма табоғи 10,2.

Нашр табоғи 10,4. Буюртма № 23/1.

Баҳоси шартнома асосида.

«Standard Poligraf Service»

МЧЖ қўшма корхонаси босмахонасида чоп этилди.

100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, Фозилтепа кўчаси, 12Б.